

VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2022 yilning yanvar-mart oylarida 305,9 mln.AQSH dollarini yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 140,2 foizni, shu jumladan, eksport 65,3 mln.AQSH dollarini, o‘tgan yilga nisbatan 72,8 foizni, import 240,6 mln.AQSH dollarini, o‘tgan yilga nisbatan 187,3 foizni tashkil etdi.


Tashqi savdo saldosi minus 175,2 mln. AQSH dollarni, shu jumladan MDH davlatlari bilan minus 91,3 mln.AQSH dollarni va boshqa davlatlar bilan minus 83,9 mln. AQSH dollarni tashkil etdi.

2022 yil yanvar-mart oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (ming AQSH dollari)

	yanvar-mart		2021 yil yanvar-martga nisbatan, foizda
	2021 yil	2022 yil	
Tashqi savdo aylanmasi	218 186,6	305 848,6	140,2
MDH mamlakatlari	64 076,6	152 346,7	2,4 m.
boshqa xorij mamlakatlari	154 110,0	153 501,9	99,6
Eksport	89 728,9	65 301,9	72,8
MDH mamlakatlari	17 871,3	30 492,4	170,6
boshqa xorij mamlakatlari	71 857,6	34 808,6	48,4
Import	128 457,7	240 547,6	187,3
MDH mamlakatlari	46 205,3	121 854,2	2,6 m.
boshqa xorij mamlakatlari	82 252,4	118 693,3	144,3
Saldo	-38 728,8	-175 246,6	x
MDH mamlakatlari	-28 334,0	-91 361,8	x
boshqa xorij mamlakatlari	-10 394,8	-85 884,7	x

So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo‘llab – quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori, hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

2022 yil yanvar-mart oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi



Viloyatimiz rezidentlari tomonidan amalga oshirilgan tashqi savdo operatsiyalarida asosiy ulushlarni Osiyo (63,4 foiz), Yevropa (36,0 foiz) davlatlari egallamoqda va ularning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 99,4 foizni tashkil etmoqda.

Buxoro viloyatining 2022 yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasidagi ulushining 49,8 foizi MDH davlatlariga to‘g‘ri keladi qolgan, 50,2 foizi boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichlar 2021 yilda mos ravishda 29,4 foizi MDH davlatlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, qolgan 70,6 foizi boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keldi. Buxoro viloyatining MDH davlatlari bilan olib borilgan tashqi savdo aylanmasi 2022 yil yanvar-mart oylariga 152,3 mln. AQSH dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 marta ko‘payish kuzatilgan. Shundan eksport 70,6 foizga va import 2,6 marta ko‘paygan.

Dunyodagi mamlakatlar orasida eksportda xamkor davlatlar Qozog‘iston, Rossiya, Qirg‘iziston, Turkiya, Afg‘oniston hisoblanib, ularning jami eksportdagi ulushi 48,2 foizni tashkil qiladi, importda esa xamkor davlatlar Turkmaniston, Rossiya, Turkiya, Xitoy, Germaniya davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 66,0 foizni tashkil qiladi.

MDH davlatlari orasida tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar Rossiya, Turkmaniston, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iziston davlatlari hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 96,7 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar orasida esa Eron, Turkiya, Xitoy, Germaniya, Italiya, Afg‘oniston, Koreya Respublikasi, davlatlarining ulushi 78,2 foizni tashkil qildi.

**Tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar
(2022 yil yanvar–mart)**

(mln. AQSH dollari)

	<i>Eksport</i>	<i>Import</i>	<i>Tovar aylanmasidagi ulushi, foizda</i>
Rossiya	15,4	55,9	23,3
Turkmaniston	1,6	48,8	16,5
Turkiya	6,6	36,2	14,0
Xitoy Xalq Respublikasi	5,2	35,2	13,2
Qozog‘iston	6,0	11,2	5,6
Eron Islom Respublikasi	5,0	11,2	5,3
Germaniya	0,3	10,9	3,6
Afg‘oniston	9,2	0,3	3,1
Qirg‘iziston	5,8	0,2	1,9
Niderlandiya	0,0	4,5	1,5
Fransiya	0,0	3,5	1,2
Litva	0,5	2,9	1,1

Viloyatning 2022 yil yanvar-mart oylarida tashqi savdoda eng asosiy hamkor davlatlari Rossiya (23,3 foiz), Turkmaniston (16,5 foiz), Xitoy (13,2 foiz), Turkiya (14,0 foiz) hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi (21,9 foiz)ni tashkil qiladi.

MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi

(ming AQSH dollari)

	<i>Eksport</i>		<i>Import</i>	
	<i>yanvar-mart</i>		<i>yanvar-mart</i>	
	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>
Jami	17 871,3	30 492,4	46 205,3	121 854,2

shu jumladan:

Rossiya	11 080,0	15 445,5	9 297,7	55 863,5
Qozog‘iston	1 882,6	6 047,0	6 981,1	11 225,9
Turkmaniston	1 666,0	1 571,7	27 964,8	48 779,9
Tojikiston	1 304,9	894,4	424,0	1 559,0
Qirg‘iziston	800,6	5790,8	23,6	163,9
Ukraina	534,3	620,4	430,8	1 475,0
Ozarbayjon	294,0	107,9	22,5	2 224,9
Armaniston	-	14,6	-	-
Belorisiya	308,9	-	1 003,3	562,1
Qirg‘iziston	-	-	57,5	-

Viloyatning eksport tarkibida barcha tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sishi kuzatilmogda. Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,4 martaga oshgan va sanoat tovarlari 93,7 foizga o'sgan.

Import tarkibining umumiy hajmidan 35,9 foizni asosan material turiga qarab klassifikasiyalangan sanoat va 35,6 foizini mashinalar va transport asbob-uskunalar tashkil qiladi.

2022 yil yanvar-mart oylarida eksport-import tarkibi


	<i>Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, foizda</i>		<i>Hajmidagi o'zgarish, foizda</i>
	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil yanvar- martga nisbatan, foizda</i>
Eksport tarkibi	100,0	100,0	72,8
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	9,2	14,8	160,3
Ichimliklar va tamaki	0,4	0,3	73,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	58,6	11,7	20,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,2	17,9	4,3 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	1,6	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,7	1,7	2,4 m.
Asosan material turiga qarab klassifikasiyalangan sanoat	23,9	46,3	193,7
Mashinalar va transport asbob- uskunalar	0,1	0,0	2,5
Turli xil tayyor buyumlar	0,7	1,5	2,1 m.
Xizmatlar	2,2	4,2	190,1
Import tarkibi	100,0	100,0	187,3
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,2	3,2	77,0
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	92,8

	<i>Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, foizda</i>		<i>Hajmidagi o‘zgarish, foizda</i>
	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil yanvar- martga nisbatan, foizda</i>
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	3,0	2,5	82,0
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	24,0	35,9	149,9
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,1	0,0	18,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	6,7	9,2	137,7
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	7,8	10,5	134,8
Mashinalar va transport asbob- uskunalar	49,2	35,6	72,2
Turli xil tayyor buyumlar	5,0	3,1	61,9

Viloyatimizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2022 yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 49,8 foizni tashkil etib, hamda tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,4 marta ko‘p.


Boshqa xorijiy davlatlarning viloyatimiz tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022yil yanvar- mart oylarida 50,2 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 70,6 foizga etdi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 foizga kamaydi.

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi
(2022 yil; o'tgan yilga nisbatan, foiz)



2022 yil yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida o'tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi.

2022 yil yanvar-mart oylarida MDH amalga oshirilgan eksport tarkibi (jamiga nisbatan foizda)



Xizmatlar eksporti hajmi 2,9 mln.AQSH dollarini yoki eksport hajmining 4,4 foizni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 151,1 foizga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekomunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.


Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2022 yil yanvar-mart oylarida jami 27,2 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 8,3 mln.AQSH dollariga eksport qilindi (115,8 foiz) tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2022 yil yanvar-mart oylarida 21,8 ming tonna sabzovotlar 6,3 mln.AQSH dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 1,4 ming tonna meva va rezavorlar 2,3 mln.AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,0 mln.AQSH dollariga kamaygan.

Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2022 yilning yanvar-mart oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 8,3 mln.AQSH dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,8 foizga kamaygan).

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi yanvar-mart oylari (ming t.)



Viloyatda etishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi


Davlat nomi	2021 yil yanvar-mart			2022 yil yanvar- mart		
	ming tonna	mln AQSH dollari	ulushi, foiz	ming tonna	mln AQSH dollari	ulushi, foiz
Qozog'iston	5,0	1,2	19,4	21,4	5,1	69,9
Xitoy	1,8	1,4	22,6	0,4	0,3	4,2
Rossiya	3,8	2,1	33,9	0,7	0,7	9,7
Afg'oniston	0,3	0,3	4,8	0,01	0,07	1,0
Boshqa davlatlar	11,1	1,2	19,3	4,7	2,1	15,2

2022 yil yanvar-mart oylarida import hajmi 240,6 mln.AQSH dollariga (o'sish sur'ati 187,3 foiz) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (2,8 marta), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (2,6 marta) va sanoat tovarlari (2,5 foiz) guruhlari hisobiga to'g'ri keladi.

Import tarkibi
(2022 yil yanvar-mart)

	Mln.AQSH doll.	2021 yil yanvar- martga nisbatan, foizda	Jamiga nisbatan, foizda
Import	240,6	187,3	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	7,8	144,2	3,2
Ichimliklar va tamaki	0,1	173,8	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,9	153,6	2,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	86,4	2,8 m.	35,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	34,2	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	22,1	2,6 m.	9,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	25,2	2,5 m.	10,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	85,6	135,3	35,6
Turli xil tayyor buyumlar	7,5	115,8	3,1

2022 yil yanvar-mart oylarida MDH va boshqa xorij davlatlari bilan amalga oshirilgan import tarkibi, (foizda)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar
- Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar
- Kimyoiy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar
- Boshqalar


**MDH va boshqa davlatlar bilan amalga oshirilgan import tarkibi
(2022 yil yanvar-mart)**

	MDH davlatlari		Boshqa davlatlar	
	mln AQSH doll.	Jamiga nisbatan, foizda	mln AQSH doll.	Jamiga nisbatan, foizda
Import	121,9	100,0	118,7	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6,1	5,0	1,7	1,5
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,1	-	0,0

	<i>MDH davlatlari</i>		<i>Boshqa davlatlar</i>	
	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	4,4	3,6	1,5	1,3
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	85,5	70,2	0,9	0,8
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	8,8	7,2	13,3	11,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	12,4	10,2	12,8	10,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	3,6	3,0	81,9	69,0
Turli xil tayyor buyumlar	0,9	0,7	6,5	5,5

2022 yil yanvar-mart oylarida viloyatimizga 59 dan ortiq xorijiy davatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo‘lgan Turkmaniston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya, Qozog‘iston va Eron hamkor davlatlaridan jami import hajmi 209,4 mln.AQSH.dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 68,5 foizni tashkil qiladi.

Mashina va uskunalar importi dinamikasi
(yanvar-mart oylari; mln.AQSH dollarri)



Mashina va asbob uskunalar importining ortib borishi to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning o‘zlashtirilishi, ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil qilinishi va modernizatsiya qilinishida o‘z aksini topadi.

Tashqi savdo aylanmasining qit’alar bo‘yicha tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan, foiz hisobida)

